

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini
ta'minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil
"___"-dekabrda ___-son buyrug'iga
2-ILOVA

**Milliy malaka tizimi ishtirokchilari respublika tanlovini
o'tkazish to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi 369-son qarori hamda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi majlisining 2025-yil 18-dekabrda 114-son bayoniga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, milliy malaka tizimi ishtirokchilari o'rtasida respublika tanlovini (keyingi o'rinlarda — Tanlov) tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi. Ushbu Nizomda hisobot davri deganda tanlov o'tkazilayotgan yilning 1-yanvaridan tanlov hujjatlarini qabul qilish muddati tugaydigan kungacha bo'lgan davr tushuniladi.

2. Tanlov uchta mustaqil toifa bo'yicha alohida-alohida o'tkaziladi:

1) kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari (keyingi o'rinlarda — Tarmoq kengashlari);

2) qonunchilikda belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan malakani baholash markazlari (keyingi o'rinlarda — Markazlar);

3) ish beruvchi tashkilotlar.

Har bir toifa belgilangan mezonlar asosida, boshqa toifalar bilan taqqoslanmagan holda baholanadi.

3. Tanlovning tashkilotchisi Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti (keyingi o'rinlarda — Institut) hisoblanadi. Tanlov har yili, qoida tariqasida, noyabr oyida o'tkaziladi.

4. Tanlov ixtiyoriylik, xolislik, betaraflik, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, shaffoflik, tenglik, sog'lom raqobat, hujjatlarga asoslanganlik tamoyillari asosida o'tkaziladi.

2-bob. Tanlovning maqsadi va asosiy vazifalari

5. Tanlovning maqsadi — Milliy malaka tizimini rivojlantirishda tarmoq kengashlari, malakani baholash markazlari va ish beruvchi tashkilotlarning faol ishtirokini rag'batlantirish, ularning ilg'or tajriba va tashabbuslarini aniqlash hamda ommalashtirish, o'zaro sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, Milliy malaka tizimini rivojlantirishga munosib hissa qo'shayotgan faol ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishdan iborat.

6. Quyidagilar Tanlovni o'tkazishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Tarmoq kengashlari, Markazlar va ish beruvchi tashkilotlar o'rtasida ilg'or, milliy malaka tizimini rivojlantirishda innovatsion va samarali tajribalarni

aniqlash hamda ularni ommalashtirish;

Tarmoq kengashlari, Markazlar va ish beruvchi tashkilotlar o'rtasida milliy malaka tizimini rivojlantirishga qaratilgan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish.

3-bob. Tanlovni o'tkazish haqida xabardor qilish tartibi

7. Tanlov tashkilotchisi tomonidan tanlovni o'tkazish to'g'risidagi e'lon tanlov o'tkaziladigan kundan kamida 10 kalendar kun oldin ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda hamda Institutning Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

8. Tanlov o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

tanlovning umumiy tavsifi;

tanlov tashkilotchisining nomi va manzili;

tanlovni moliyalashtirish manbai;

tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan asosiy shartlar;

tanlovni amalga oshirish muddatlari;

tanlov ishtirokchilaridan hujjatlarni qabul qilishning manzili, oxirgi kuni va vaqti.

baholash mezonlari va baholash tartibi;

apellyatsiya berish muddati va tartibi.

9. Tanlovda ishtirok etish uchun ariza va unga ilova qilinadigan hujjatlar tanlov tashkilotchisiga ariza beruvchi tanlov ishtirokchisi tomonidan bevosita, pochta orqali va elektron shaklda berilishi mumkin.

10. Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'londa belgilangan muddatdan kechiktirib taqdim etilgan hujjatlar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi. Bu haqda ariza beruvchiga hujjatlar kelib tushgan kundan e'tiboran bir ish kuni ichida mavjud aloqa vositalari orqali xabar beriladi.

4-bob. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish

11. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish Milliy malaka tizimi ishtirokchilari respublika tanlovini o'tkazish bo'yicha tanlov komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Tanlov komissiyasi) zimmasiga yuklanadi.

12. Tanlovda ishtirok etish uchun 5-ilovaga muvofiq tarmoq kengashlari, 6-ilovaga muvofiq markazlar, 7-ilovaga muvofiq ish beruvchi tashkilotlar tanlov tashkilotchisiga hujjatlarni taqdim etadilar.

13. Tanlov komissiyasi milliy malaka tizimi, kasbiy malakalar, mehnat bozori, ta'lim yoki malakani baholash sohalarida kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar orasidan kamida 9 nafar a'zodan iborat toq sonli tarkibda shakllantiriladi.

Tanlov komissiyasi tarkibi Institut direktori tomonidan tasdiqlanadi.

14. Tanlov komissiyasi yig'ilishi uning a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

15. Tanlov ikki bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich – arizalarni qabul qilish, hujjatlarni baholashga tayyorlash;

2-bosqich – hujjatlar asosida kompleks baholash va g'oliblarni aniqlash.

16. Tanlovning 1-bosqichini tashkil etish uchun Tanlov komissiyasi raisi tomonidan tarkibi tasdiqlanadigan ishchi guruh tuziladi.

17. Ishchi guruh tanlovning 1-bosqichida tanlovni tashkil etish va o'tkazishga doir zarur ma'lumotlarni tayyorlaydi, ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni qabul qiladi hamda ularning ushbu Nizomning 5, 6 yoki 7-ilovasida nazarda tutilgan hujjatlar ro'yxatiga muvofiqligi, to'liqligi, zarur rekvizitlar mavjudligi va belgilangan shaklda rasmiylashtirilganligini tekshiradi. Ishchi guruh hujjatlarni mazmunan baholash yoki ball qo'yishga haqli emas. Bartaraf etish mumkin bo'lgan texnik yoki rasmiylashtirishga oid kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ariza beruvchiga ularni bartaraf etish uchun ikki ish kuni muddat beriladi. Belgilangan muddatda kamchiliklar bartaraf etilmasa, ishchi guruh hujjatlarni Tanlovning 2-bosqichiga kiritmaslik to'g'risida asoslantirilgan xulosa rasmiylashtiradi va bu haqda ariza beruvchini bir ish kuni ichida xabardor qiladi.

18. Tanlovning 2-bosqichi Tanlov komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda Tanlov komissiyasining har bir a'zosi ushbu Nizomning 1, 2 yoki 3-ilovasida belgilangan baholash mezonlariga muvofiq har bir tanlov ishtirokchisining hujjatlarini mustaqil ravishda 100 ballik tizim asosida baholaydi.

Tanlov komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlangan ishchi guruh a'zolari tanlovning ikkinchi bosqichida ishtirok etmaydi.

19. Tanlovning ikkinchi bosqichi Tanlov komissiyasining yig'ilishi shaklida o'tkaziladi. Yig'ilishda individual baholash natijalari umumlashtiriladi, yakuniy ballar hisoblab chiqiladi hamda tanlov g'oliblarini aniqlash masalasi ko'rib chiqiladi. Qabul qilingan qaror yig'ilish bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Bunda "Eng faol kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi", "Eng faol malakani baholash markazi" va "Eng faol ish beruvchi tashkilot" nominatsiyalari bo'yicha tanlov g'oliblari aniqlanadi.

20. Tanlov komissiyasining har bir a'zosi har bir tanlov ishtirokchisi bo'yicha ushbu Nizomning 4-ilovasiga muvofiq alohida baholash varaqasini shaxsan to'ldiradi va imzolaydi. Baholash varaqasida har bir mezon bo'yicha qo'yilgan ball hamda ushbu ballni asoslovchi hujjatning nomi va rekvizitlari ko'rsatilishi shart. Asoslovchi hujjat ko'rsatilmagan ball hisobga olinmaydi.

21. Tanlov komissiyasi kotibi baholash varaqalaridagi ballarni hisoblab chiqadi. Har bir ishtirokchining yakuniy bali baholashda ishtirok etgan Tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan qo'yilgan jami ballar yig'indisini baholashda ishtirok etgan a'zolar soniga bo'lish orqali arifmetik o'rtacha qiymat sifatida yuzdan birgacha aniqlikda aniqlanadi.

22. Tanlov komissiyasi raisi kotib tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblarning arifmetik to'g'riligini va baholash varaqalarining to'liq rasmiylashtirilganligini tekshiradi hamda yakuniy ballar to'g'risidagi ma'lumotni Tanlov komissiyasi a'zolariga e'lon qiladi. Tanlov komissiyasi raisi boshqa a'zolar tomonidan qo'yilgan ballarni o'zgartirishga haqli emas.

23. Tanlov natijasiga ko'ra har bir nominatsiya bo'yicha eng yuqori yakuniy ball to'plagan tanlov ishtirokchisi g'olib deb topiladi.

Ikki yoki undan ortiq tanlov ishtirokchisi teng yakuniy ball to'plagan taqdirda, ularning tegishli ilovadagi baholash mezonlari bo'yicha o'rtacha ballari

mezonlarning tartib raqami ketma-ketligida taqqoslanadi. Ushbu tartibda ham ustunlik aniqlanmasa, g'olib Tanlov komissiyasi a'zolarining ochiq ovoz berishi orqali aniqlanadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, Tanlov komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

24. Tanlov komissiyasining qarorlari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Tanlov komissiyasi yig'ilishining bayonnomasi Tanlov komissiyasi kotibi tomonidan yuritiladi hamda Tanlov komissiyasi raisi, kotibi va yig'ilishda ishtirok etgan barcha a'zolar tomonidan imzolanadi. Komissiya a'zosi qabul qilingan qarorga qo'shilmagan taqdirda, uning alohida fikri yozma ravishda bayonnomaga ilova qilinadi. Komissiya a'zosi bayonnomani imzolashdan bosh tortsa, bu haqda sabablar ko'rsatilgan holda bayonnomaga qayd kiritiladi.

25. Tanlov jarayoni, yakuniy natijalari va g'oliblar to'g'risidagi ma'lumotlar Institutning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e'lon qilinadi. Apellyatsiyani ko'rib chiqish natijasida tanlov natijalari o'zgargan taqdirda, yangilangan ma'lumotlar ham xuddi shu tartibda e'lon qilinadi.

5-bob. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish

26. Ishchi guruh, Tanlov komissiyasi va Apellyatsiya komissiyasi a'zosi qonunchilikka muvofiq mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, tegishli tanlov ishtirokchisiga oid hujjatlarni ko'rib chiqish, baholash va qaror qabul qilishda ishtirok etmasligi hamda o'zini o'zi chetlashtirishi shart. Jumladan:

a) o'zi ishlaydigan yoki oxirgi ikki yil ichida ishlagan tashkilot tanlovda ishtirok etayotgan bo'lsa;

b) qonunchilikda belgilangan yaqin qarindoshi tegishli tashkilotning rahbariyatida ishlasa yoki tanlov natijasidan bevosita manfaatdor bo'lsa;

v) o'zi yoki qonunchilikda belgilangan yaqin qarindoshi tegishli tashkilot bilan moliyaviy, mulkiy yoki shartnomaviy munosabatlarda bo'lsa.

g) uning xolis va betaraf qaror qabul qilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsiy manfaatdorlik mavjud bo'lsa.

27. Mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan shaxs bu haqda tegishli masalani ko'rib chiqish boshlanishidan oldin yozma ravishda komissiya raisini (ishchi guruh a'zosi bo'lsa — ishchi guruh rahbarini) xabardor qiladi. Yozma xabarnoma tegishli yig'ilish bayonnomasiga yoki ishchi guruh hujjatlariga ilova qilinadi. Mazkur shaxs tegishli ishtirokchiga oid hujjatlarni ko'rib chiqish, muhokama qilish, baholash va ovoz berishda ishtirok etmaydi.

28. Manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilmagan holda ko'rib chiqish, baholash yoki ovoz berishda ishtirok etilganligi keyinchalik aniqlansa, mazkur shaxs tomonidan qo'yilgan baholar va berilgan ovozlar hisobdan chiqariladi hamda natijalar qayta hisoblanadi. Ushbu holat g'olibni aniqlash natijasiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, Tanlov komissiyasining tegishli qarori qayta ko'rib chiqiladi.

6-bob. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

29. Har bir nominatsiya bo'yicha I o'rinni egallagan ishtirokchi nominatsiya g'olibi deb topiladi va qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli diplom hamda tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida qimmatbaho sovg'a bilan taqdirlanadi.

30. Tanlovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish, shuningdek g'oliblarni taqdirlash bilan bog'liq sarf-xarajatlar tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi, Institut, tegishli xalqaro tashkilotlar, xalqaro grantlar va donorlarning mablag'lari (moliyaviy ko'mak doirasida), shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

31. Vazirliklar, idoralar, tashkilotlar, korxonalar, jismoniy shaxslar va xalqaro tashkilotlar qonunchilikka muvofiq tanlovni o'tkazishda hamkor yoki homiy sifatida ishtirok etishi mumkin. Hamkorlar va homiylarning Tanlov komissiyasi, ishchi guruh yoki Apellyatsiya komissiyasi faoliyatiga, ball qo'yish va g'olibni aniqlash jarayoniga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

32. Tanlovda faol qatnashgan ishtirokchilarni hamkor vazirlik va idoralarning tashakkurnomalari bilan taqdirlash yuzasidan tegishli tashkilotlarga taklif kiritilishi mumkin.

7-bob. Apellyatsiya berish tartibi

33. Tanlov ishtirokchisi ishchi guruhning hujjatlarni Tanlovning 2-bosqichiga kiritmaslik to'g'risidagi xulosasi, tanlovdan chetlashtirish to'g'risidagi qaror, baholash natijalari yoki tanlovni o'tkazish tartib-taomillari buzilganligi yuzasidan apellyatsiya berishga haqli. Apellyatsiya tegishli qaror haqida xabardor qilingan yoki tanlov natijalari rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab besh ish kuni ichida Institutga yozma yoxud elektron shaklda taqdim etiladi.

34. Apellyatsiyalarni ko'rib chiqish uchun Institut tomonidan kamida 5 nafar a'zodan iborat toq sonli Apellyatsiya komissiyasi tuziladi. Uning tarkibiga huquqshunoslar, milliy malaka tizimi sohasidagi mutaxassislar va boshqa ekspertlar kiritilishi mumkin. Tegishli ishtirokchining hujjatlarini ishchi guruhda ko'rib chiqishda yoki Tanlov komissiyasida baholashda qatnashgan shaxslar ushbu ishtirokchining apellyatsiyasini ko'rib chiqishda ishtirok etmaydi.

Apellyatsiya komissiyasining tarkibi Institut direktori tomonidan tasdiqlanadi. Apellyatsiya komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi. Qarorlar yig'ilishda ishtirok etgan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, ovozlar teng bo'lgan taqdirda komissiya raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

35. Apellyatsiya komissiyasi apellyatsiyani u kelib tushgan kundan boshlab besh ish kuni ichida ko'rib chiqadi. Ko'rib chiqish yakuniga ko'ra apellyatsiyani qanoatlantirishni rad etish, uni to'liq yoki qisman qanoatlantirish, tegishli qarorni bekor qilish yoxud boshqa tarkibdagi mutaxassislar tomonidan qayta baholash o'tkazish to'g'risida asoslantirilgan qaror qabul qilinadi. Qaror nusxasi bir ish kuni ichida ariza beruvchiga yuboriladi. Mazkur tartib ishtirokchining qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli organlarga yoki sudga murojaat qilish huquqini cheklamaydi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

36. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi. Tanlovni tashkil etish, hujjatlarni ko'rib chiqish va baholash jarayonida olingan tijorat siri, xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan axborot, shaxsga doir ma'lumotlar hamda qonunchilik bilan muhofaza qilinadigan boshqa ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlanadi. Bunday ma'lumotlardan faqat tanlovni tashkil etish va o'tkazish maqsadlarida foydalaniladi.

37. Taqdim etilgan ma'lumot yoki hujjatning soxtaligi ishonchli manba yoxud vakolatli organ ma'lumotlari bilan tasdiqlangan taqdirda, ishtirokchi tanlovdan chetlashtiriladi. Chetlashtirish to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin ishtirokchiga ikki ish kuni ichida yozma tushuntirish va tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etish imkoniyati beriladi. Soxtalik g'olib aniqlangandan keyin aniqlansa, tegishli natija bekor qilinadi va yakuniy ballar asosida keyingi o'rindagi ishtirokchi g'olib deb topiladi. Ishtirokchi mazkur qaror ustidan ushbu Nizomning 7-bobida belgilangan tartibda apellyatsiya berishga haqli.

38. Ushbu Nizomda nazarda tutilmagan masalalar qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

Milliy malaka tizimi ishtirokchilari
respublika tanlovini o'tkazish
to'g'risidagi nizomga
1-ilova

**“Eng faol kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi”
nominatsiyasi bo'yicha baholash mezonlari**

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1	Mehnat bozori monitoringini amalga oshirish va malakalarga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash	15 ball
	Hisobot davrida mehnat bozori monitoringi amalga oshirilmagan	0 ball
	Hisobot davrida 1 marotaba mehnat bozori monitoringi amalga oshirilgan	5 ball
	Hisobot davrida 2 marotaba mehnat bozori monitoringi amalga oshirilgan	10 ball
	Hisobot davrida 2 marotaba monitoring amalga oshirilib, uning natijalari asosida tarmoqning kasbiy malakalarga bo'lgan ehtiyojlari va tendensiyalari yuzasidan tahliliy ma'lumot hamda tegishli takliflar ishlab chiqilgan	15 ball
2	Tarmoq malaka ramkalarini ishlab chiqish, joriy etish va takomillashtirish	15 ball
	Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish yoki takomillashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmagan	0 ball
	Tarmoq malaka ramkasi loyihasi ishlab chiqilgan	5 ball
	Mehnat bozori talablari va o'qitish natijalari (learning outcomes) asosida tarmoq malaka ramkasi ishlab chiqilgan va joriy etilgan	10 ball
	Tarmoq malaka ramkasi ishlab chiqilgan va joriy etilgan hamda ilg'or xorijiy tajriba va iqtisodiy tendensiyalar asosida takomillashtirilgan	15 ball
3	Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va takomillashtirish	20 ball
	Kasbiy standartlarni ishlab chiqish yillik rejasi tasdiqlanmagan, kasbiy standartlar ishlab chiqilmagan	0 ball
	Yillik ish rejasi tasdiqlangan, biroq yillik ish rejasiga muvofiq kasbiy standartlar ishlab chiqilmagan	6 ball
	Yillik ish rejasi tasdiqlangan va unga muvofiq kasbiy standartlar ishlab chiqilgan	12 ball
	Yillik ish rejasi tasdiqlangan, unga muvofiq kasbiy standartlar ishlab chiqilgan hamda mavjud kasbiy standartlar takomillashtirilgan	20 ball
4	Malakani baholash markazlari faoliyatini rivojlantirish va baholash vositalarini ekspertizadan o'tkazish	15 ball
	Tarmoqda malakani baholash markazlari faoliyatini tashkil etish, baholash vositalarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ishlar amalga oshirilmagan	0 ball
	Baholash vositalarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ishlar amalga oshirilgan	10 ball
	Malakani baholash markazlari faoliyatini tashkil etish, ularning faoliyatini muntazam monitoring qilish, baholash vositalarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish hamda tegishli axborotlarni Institutga taqdim etish tizimli ravishda amalga oshirilgan	15 ball
5	Malakani baholash jarayonlarida korrupsiyaning oldini olish, xolislik va shaffoflikni ta'minlash	10 ball

	Korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmagan	0 ball
	Korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan	3 ball
	Chora-tadbirlar rejasi ijrosi ta'minlangan hamda malakalarni baholash jarayonlarida xolislik va shaffoflik holati o'rganilgan	6 ball
	Chora-tadbirlar rejasi ijrosi muntazam monitoring qilinib, kamchiliklar aniqlangan taqdirda ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'rilgan	10 ball
6	Ta'lim dasturlarining kasbiy standartlarga muvofiqligini baholash va ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish	10 ball
	Ta'lim dasturlarining kasbiy standartlarga muvofiqligi baholanmagan	0 ball
	1–5 ta ta'lim dasturining kasbiy standartlarga muvofiqligi baholangan va xulosa berilgan	5 ball
	6 ta va undan ortiq ta'lim dasturining kasbiy standartlarga muvofiqligi baholangan va takomillashtirish bo'yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqilgan	10 ball
7	Mehnat bozorida paydo bo'layotgan va istiqbolda talab etiladigan kasblarni aniqlash hamda klassifikatorlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish	10 ball
	Yangi va istiqbolli kasblarni aniqlash bo'yicha takliflar ishlab chiqilmagan	0 ball
	Mehnat bozori tendensiyalari asosida yangi va istiqbolli kasblar aniqlangan	3 ball
	Mashg'ulotlar milliy klassifikatoriga kiritish yoki undan chiqarish bo'yicha kasb (lavozim)lar ro'yxati shakllantirilgan	6 ball
	Tegishli kasb (lavozim)lar ro'yxati shakllantirilgan, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Institutga taqdim etilgan va Mashg'ulotlar milliy klassifikatorini takomillashtirish bo'yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqilgan	10 ball
8	Tarmoq kengashi faoliyatiga xususiy sektor vakillarini jalb qilish	5 ball
	Xususiy sektor vakillari Tarmoq kengashi faoliyatiga jalb qilinmagan	0 ball
	Tarmoq malaka ramkalari yoki kasbiy standartlarni ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruhlariga xususiy sektor vakillari jalb qilingan	3 ball
	Ishchi guruhlariga xususiy sektor vakillari jalb qilinib, ishlab chiqilgan tarmoq malaka ramkalari va kasbiy standartlar bo'yicha xususiy sektor korxona va tashkilotlarining xulosalari olingan	5 ball
Jami		100 ball

Milliy malaka tizimi ishtirokchilari
respublika tanlovini o'tkazish
to'g'risidagi nizomga
2-ilova

**“Eng faol malakani baholash markazi” nominatsiyasi bo'yicha
baholash mezonlari**

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1	Malakani mustaqil baholash bilan qamrov darajasi	15 ball
	Kasbiy imtihonda ishtirok etgan talabgorlar soni 1–50 nafar	5 ball
	Kasbiy imtihonda ishtirok etgan talabgorlar soni 51–200 nafar	10 ball
	Kasbiy imtihonda ishtirok etgan talabgorlar soni 201 nafar va undan ortiq	15 ball
2	Kasbiy imtihonlar natijalarining sifat ko'rsatkichi	15 ball
	Baholash jarayonida natijalarning haqqoniyligiga ta'sir ko'rsatgan jiddiy kamchiliklar aniqlangan	0 ball
	Baholash jarayonida ayrim kamchiliklar aniqlangan, biroq ular baholash natijalarining haqqoniyligiga ta'sir ko'rsatmagan	5 ball
	Baholash jarayoni belgilangan talablarga muvofiq o'tkazilgan, biroq apellyatsiya natijasida baholashning ayrim kamchiliklari tasdiqlangan	10 ball
	Baholash jarayoni belgilangan talablarga to'liq muvofiq o'tkazilgan hamda baholash natijalarining haqqoniyligiga ta'sir ko'rsatuvchi kamchiliklar aniqlanmagan	15 ball
3	Kasbiy imtihon o'tkaziladigan kasblar (malaka) qamrovi	20 ball
	Kasbiy imtihon o'tkaziladigan kasblar (malakalar) soni 1–2 ta	5 ball
	Kasbiy imtihon o'tkaziladigan kasblar (malakalar) soni 3–5 ta	10 ball
	Kasbiy imtihon o'tkaziladigan kasblar (malakalar) soni 6 va undan ortiq	20 ball
4	Milliy malaka tizimiga oid qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar	10 ball
	Milliy malaka tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif ishlab chiqilmagan	0 ball
	Milliy malaka tizimini takomillashtirish bo'yicha tahliliy material tayyorlangan	3 ball
	Milliy malaka tizimini takomillashtirish bo'yicha 1-2 ta asoslantirilgan taklif ishlab chiqilgan	6 ball
	Milliy malaka tizimini takomillashtirish bo'yicha 3 va undan ortiq asoslantirilgan taklif ishlab chiqilgan	10 ball
5	Talabgorlarni axborot bilan ta'minlash va faoliyat ochiqqligi	20 ball
	Malakani mustaqil baholash tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar Markazning rasmiy saytida joylashtirilmagan	0 ball
	Malakani mustaqil baholash tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar markaz rasmiy saytiga qisman joylashtirilgan	5 ball
	Imtihon tartibi, talablar, muddatlar va murojaat qilish tartibi bo'yicha ma'lumotlar	10 ball

	markaz rasmiy saytiga ochiq joylashtirilgan	
	Markazning rasmiy saytida barcha zarur axborotlar muntazam yangilanib, talabgorlar uchun ochiq va tushunarli shaklda taqdim etilgan	20 ball
	Malakani mustaqil baholash jarayonlarini ichki monitoring qilish	20 ball
	Monitoring o'tkazilmagan	0 ball
	Ayrim imtihonlar bo'yicha amalga oshirilgan	5 ball
6	Monitoring muntazam amalga oshirilgan	10 ball
	Monitoring muntazam amalga oshirilgan, uning natijalari tahlil qilingan hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tuzatish choralari amalga oshirilgan	20 ball
Jami		100 ball

Milliy malaka tizimi ishtirokchilari
respublika tanlovini o'tkazish
to'g'risidagi nizomga
3-ilova

**“Eng faol ish beruvchi tashkilot” nominatsiyasi bo'yicha
baholash mezonlari**

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1	Xodimlarni malakani mustaqil baholashdan o'tkazish	25 ball
	Hisobot davrida xodimlar malakani mustaqil baholashdan o'tkazilmagan	0 ball
	Tegishli kasb (malaka)lar bo'yicha xodimlarning 0 foizdan yuqori 10 foizgacha qismi malakani mustaqil baholashdan o'tkazilgan	5 ball
	Tegishli kasb (malaka)lar bo'yicha xodimlarning 11–30 foizi malakani mustaqil baholashdan o'tkazilgan	10 ball
	Tegishli kasb (malaka)lar bo'yicha xodimlarning 31–50 foizi malakani mustaqil baholashdan o'tkazilgan	20 ball
	Tegishli kasb (malaka)lar bo'yicha xodimlarning 51 foizi va undan yuqori qismi malakani mustaqil baholashdan o'tkazilgan	25 ball
2	Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va takomillashtirishda ishtirok etish	20 ball
	Kasbiy standartlarni ishlab chiqish yoki takomillashtirishda ishtirok etmagan	0 ball
	1–2 ta kasbiy standartni ishlab chiqish yoki takomillashtirishda ishtirok etgan	7 ball
	3–5 ta kasbiy standartni ishlab chiqish yoki takomillashtirishda ishtirok etgan	14 ball
	6 ta va undan ortiq kasbiy standartni ishlab chiqish yoki takomillashtirishda ishtirok etgan	20 ball
3	Malaka sertifikatlari va malaka pasportlaridan tashkilotning kadrlar siyosatida foydalanish	20 ball
	Malaka sertifikati yoki malaka pasporti kadrlar siyosatida hisobga olinmaydi	0 ball
	Malaka sertifikati yoki malaka pasporti ayrim kasb (lavozim)lar bo'yicha hisobga olinadi	7 ball
	Malaka sertifikati yoki malaka pasporti xodimlarni ishga qabul qilish va/yoki lavozimga tayinlashda hisobga olinadi	14 ball
	Malaka sertifikati yoki malaka pasporti ishga qabul qilish, kasbiy/lavozim bo'yicha o'sish, malaka darajasini belgilash va/yoki mehnatga haq to'lash mexanizmlariga integratsiya qilingan	20 ball
4	Tarmoq kengashlari va malakani baholash markazlari bilan hamkorlik	15 ball
	Tarmoq kengashi va malakani baholash markazlari bilan hamkorlik amalga oshirilmagan	0 ball

	Tarmoq kengashi yoki malakani baholash markazi faoliyatidagi alohida tadbirlarda ishtirok etgan	5 ball
	Tarmoq kengashi va/yoki malakani baholash markazlari bilan muntazam hamkorlik yo'lga qo'yilgan	10 ball
	Tarmoq kengashi va malakani baholash markazlari bilan tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilib, qo'shma loyihalar va amaliy tadbirlar amalga oshirilgan	15 ball
	Xodimlarning kasbiy malakasini rivojlantirishni kasbiy standartlar yoki malaka talablariga muvofiq tashkil etish	15 ball
5	Xodimlarning kasbiy rivojlanishi kasbiy standartlar yoki malaka talablari bilan bog'lanmagan	0 ball
	Xodimlarning malakaga bo'lgan ehtiyojlari kasbiy standartlar asosida qisman aniqlanadi	7 ball
	Xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malakasini oshirish kasbiy standartlar yoki malaka talablari asosida tashkil etiladi	15 ball
	Milliy malaka tizimini rivojlantirish bo'yicha tashabbus va takliflar	5 ball
	Milliy malaka tizimini rivojlantirish bo'yicha taklif yoki tashabbus kiritilmagan	0 ball
6	Milliy malaka tizimini rivojlantirish bo'yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqilgan	3 ball
	Tashkilot tomonidan ilgari surilgan tashabbus yoki ilg'or tajriba MMT doirasida amaliyotga joriy etilgan va/yoki boshqa tashkilotlarda ommalashtirilgan	5 ball
Jami		100 ball

Milliy malaka tizimi ishtirokchilari
respublika tanlovini o'tkazish
to'g'risidagi nizomga
4-ilova

Maxsus baholash varaqasi namunasi

Milliy malaka tizimi ishtirokchilari respublika tanlovi ishtirokchisini
baholash varaqasi

Nominatsiya _____

Ishtirokchi nomi _____

Baholash sanasi: "___" _____ 20-__yil

Baholash mezonlari	Mezonga ajratilgan maksimal ball	Qo'yilgan ball	Ballni asoslovchi hujjatning nomi va rekvizitlari	Izoh
Jami	100			

Tanlov komissiyasi a'zosi: _____
(imzo) (F.I.Sh.)

Izoh: Har bir Tanlov komissiyasi a'zosi har bir ishtirokchi bo'yicha alohida baholash varaqasini to'ldiradi. Baholash mezonlari tegishli nominatsiya bo'yicha ushbu Nizomning 1, 2 yoki 3-ilovasiga muvofiq kiritiladi.

Milliy malaka tizimi ishtirokchilari
respublika tanlovini o'tkazish
to'g'risidagi nizomga
5-ilova

**“Eng faol kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi”
nominatsiyasida ishtirok etish uchun taqdim etiladigan hujjatlar**

T/r	Taqdim etiladigan hujjat
1	Tanlovda ishtirok etish to'g'risidagi ariza
2	Tarmoq kengashining yillik faoliyati to'g'risida qisqacha axborot
3	Hisobot davrida amalga oshirilgan mehnat bozori monitoringi natijalari bo'yicha hisobotlar, tahliliy ma'lumotlar va ular asosida ishlab chiqilgan takliflar
4	Ishlab chiqilgan, joriy etilgan va/yoki takomillashtirilgan tarmoq malaka ramkasi hamda uni tasdiqlovchi hujjatlar
5	Kasbiy standartlarni ishlab chiqish bo'yicha tasdiqlangan yillik reja va uning ijrosi to'g'risidagi ma'lumot
6	Hisobot davrida ishlab chiqilgan va/yoki takomillashtirilgan kasbiy standartlar ro'yxati hamda ularning tasdiqlanganligini tasdiqlovchi hujjatlar
7	Baholash vositalarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (ekspertiza xulosalari, bayonnomalar va boshqalar)
8	Tarmoqdagi malakani baholash markazlari faoliyatini tashkil etish va monitoring qilish natijalarini tasdiqlovchi hujjatlar hamda Institutga taqdim etilgan axborotlar
9	Malakani baholash jarayonlarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi, uning ijrosi va monitoring natijalarini tasdiqlovchi hujjatlar
10	Ta'lim dasturlarining kasbiy standartlarga muvofiqligi bo'yicha berilgan xulosalar va ularni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar
11	Mehnat bozorida yangi va istiqbolli kasblarni aniqlash bo'yicha tahliliy materiallar, Mashg'ulotlar milliy klassifikatoriga kasblarni kiritish yoki undan chiqarish bo'yicha shakllantirilgan va tegishli tashkilotlarga taqdim etilgan takliflar
12	Tarmoq malaka ramkalari va kasbiy standartlarni ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruhlariga xususiy sektor vakillari jalb etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar hamda xususiy sektor korxona va tashkilotlaridan olingan xulosalar
13	Taqdim etilayotgan hujjatlar ro'yxati

Milliy malaka tizimi ishtirokchilari
respublika tanlovini o'tkazish
to'g'risidagi nizomga
6-ilova

**“Eng faol malakani baholash markazi” nominatsiyasida ishtirok etish uchun
taqdim etiladigan hujjatlar**

T/r	Taqdim etiladigan hujjat
1	Tanlovda ishtirok etish to'g'risidagi ariza
2	Markazning amaldagi akkreditatsiyasini tasdiqlovchi guvohnomasi nusxasi
3	Markazning hisobot davridagi faoliyati to'g'risida qisqacha axborot
4	Hisobot davrida o'tkazilgan kasbiy imtihonlar, ularda ishtirok etgan talabgorlar soni to'g'risidagi tasdiqlangan ma'lumot
5	Kasbiy imtihonlar natijalarining sifati, aniqlangan kamchiliklar va e'tiroz (apellyatsiya)larni ko'rib chiqish natijalari to'g'risidagi ma'lumot va tasdiqlovchi hujjatlar
6	Kasbiy imtihon o'tkazilgan kasb (malaka)lar ro'yxati hamda imtihon o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlar
7	Milliy malaka tizimini takomillashtirish bo'yicha tayyorlangan tahliliy materiallar va asoslantirilgan takliflar
8	Markazning rasmiy veb-saytida talabgorlar uchun joylashtirilgan axborotlar to'g'risidagi ma'lumot (tegishli sahifalarning elektron manzillari ko'rsatilgan holda)
9	Malakani mustaqil baholash jarayonlari bo'yicha o'tkazilgan ichki monitoring natijalari, tahliliy ma'lumotlar va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rilgan choralarni tasdiqlovchi hujjatlar
10	Taqdim etilayotgan hujjatlar ro'yxati

Milliy malaka tizimi ishtirokchilari
respublika tanlovini o'tkazish
to'g'risidagi nizomga
7-ilova

“Eng faol ish beruvchi tashkilot” nominatsiyasida ishtirok etish uchun taqdim etiladigan hujjatlar

T/r	Taqdim etiladigan hujjat
1	Tanlovda ishtirok etish to'g'risidagi ariza
2	Tashkilotning faoliyati, xodimlar soni va asosiy kasb (lavozim)lari to'g'risida qisqacha ma'lumot
3	Tegishli kasb (malaka)lar bo'yicha faoliyat yuritayotgan xodimlarning umumiy soni hamda hisobot davrida malakani mustaqil baholashdan o'tgan xodimlar soni to'g'risidagi tasdiqlangan ma'lumot
4	Xodimlarning malakani mustaqil baholashdan o'tganligini tasdiqlovchi yig'ma ma'lumot va/yoki tegishli tasdiqlovchi hujjatlar
5	Kasbiy standartlarni ishlab chiqish yoki takomillashtirishda tashkilot vakillari ishtirok etganligini tasdiqlovchi hujjatlar (ishchi guruh tarkibi, bayonnoma, xulosa va boshqalar)
6	Malaka sertifikati yoki malaka pasportidan ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash, kasbiy/lavozim bo'yicha o'sish, malaka darajasini belgilash va/yoki mehnatga haq to'lashda foydalanilishini tasdiqlovchi ichki hujjatlar
7	Tarmoq kengashlari va malakani baholash markazlari bilan hamkorlikni tasdiqlovchi hujjatlar (kelishuvlar, qo'shma loyihalar, bayonnomalar, dalolatnomalar va boshqa hujjatlar)
8	Xodimlarning malakaga bo'lgan ehtiyojlarini kasbiy standartlar yoki malaka talablari asosida aniqlash, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha tasdiqlangan rejalarda, dasturlar va ularning ijrosini tasdiqlovchi hujjatlar
9	Milliy malaka tizimini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan va asoslantirilgan takliflar, amalga oshirilgan tashabbus va loyihalar hamda ularning amaliyotga joriy etilganligi yoki ommalashtirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar
10	Taqdim etilayotgan hujjatlar ro'yxati